



Xalq so'zi

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan



WWW.XS.UZ



E-mail: Info@xs.uz



2023-yil 29-noyabr, № 253-254 (8595-8596)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



FARMATSEVTIKA VA ELEKTROTEXNIKA SANOATIDAGI DOLZARB MASALALAR MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 28-noyabr kuni farmatsevtika va elektrotexnika sanoatida ishlab chiqarishni yanada qo'llab-quvvatlash, korxonalarning eksport salohiyatini oshirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Mamlakatimizda bu ikki tarmoq uchun ham zarur xomashyo, yetarli sharoitlar bor. Xususan, oxirgi olti yilda farmatsevtika sohasida ishlab chiqarish 3 barobar, eksport 6 barobar ko'paygan. 525 million dollarlik 177 ta loyiha ishga tushirilib, jami 50 mingta ish o'rni yaratilgan.

Lekin bu hali mavjud imkoniyat va talab darajasida emas. Masalan, yurtimizda yiliga 1,6 milliard dollarlik dori-darmon iste'mol qilinadi. Bunda mahalliy mahsulotlarimizning ulushi bor-yo'g'i 18 foiz, qolgan import hisobidan qoplangan.

Shu bois yig'ilishda mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

— So'nggi yillarda bu sohaga katta ko'mak va mablag' berildi, farmatsevtika zonolari tashkil etildi. Lekin bundan to'la foydalanilmayapti. Mahalliyashtirishni kengaytirish, tadbirkorlar loyihalarini qo'llab-quvvatlash, ularning mahsulotlari

xaridorgirligini ta'minlash kerak. Buning zahirida qancha ish o'rni, qancha odamlarning roziligi bor, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bu borada xorij tajribasini o'rganish, mashhur brendlarni mamlakatimizga jalb etish muhimligi ta'kidlandi. Jumladan, eng ko'p iste'mol qilinadigan 50 turdagi dorini yurtimizda ishlab chiqarish orqali mahalliyashtirish ulushini 35 foizga yetkazish mumkinligi ko'rsatib o'tildi.

"Tashkent Pharma Park" klasteri qurilishini jadallashtirish, unga xususiy sherikni jalb etish zarurligi aytili. Shuningdek, farmatsevtika korxonalariga "GMP" xalqaro standartiga o'tish va markirovkalash tizimini yo'lga qo'yishda ko'maklashiladi.

Umuman, bu sohada 1,5 milliard dollarlik 173 ta loyiha shakllantirilgan. Ularni moliyalashtirish uchun 600 million dollar yo'naltiriladi.

Mutasaddilar ularning natijasida 2024-yilda 400 million dollarlik mahsulot ishlab chiqarilishi, 160 million dollar eksport ta'minlanishi bo'yicha axborot berdi.

Yig'ilishda elektrotexnika sanoatiga doir masalalar ham ko'rib chiqildi.

So'nggi olti yilda bu sohada 640 million dollarlik 224 ta loyiha ishga tushirilgan. Bu yil yakunida eksport 1 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, yurtimizga yiliga 800 million dollarlik elektrotexnika tovarlari import bo'lmoqda. Umuman olganda, mintaqamizda 3 milliard dollarlik bozor bor.

Bunda munosib o'rin egallash uchun nufuzli brendlar bilan hamkorlik o'rnatib, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish zarurligi qayd etildi. Kelgusi yilga mo'ljallangan 2 milliard dollarlik 141 ta loyihada bunga alohida e'tibor qaratiladi.

Joriy yilda 2 gigavatt, 2024-yilda yana 4 gigavatt quyosh va shamol elektr

stansiyalari ishga tushiriladi. Ularga juda ko'p kabel, generator, inventar, transformatorlar zarur. Bu mahsulotlarni mahalliyashtirib, xalqaro sifat sertifikatlari olish vazifasi qo'yildi.

Sohada ilg'or texnologiya, innovatsiya va xalqaro standartlarni joriy etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun 100 million dollar yo'naltirilishi belgilandi.

Mutasaddilar kelgusi yilda ishlab chiqarishni 20 foizga oshirish, misni qayta ishlash hajmini 140 ming tonnaga olib chiqish rejalarini bayon etdi. Shuningdek, eksportni 1,5 milliard dollarga, 2025-yilda 2 milliard dollarga yetkazish imkoniyati borligi qayd etildi.

Yig'ilishda ushbu tarmoqlardagi muammo va vazifalar yuzasidan viloyat hokimlari va tadbirkorlarning takliflari eshitildi.

O'ZA.

Xalqaro konferensiya

DEMOGRAFIK BARQAROR RIVOJLANISH YUZASIDAN O'ZARO TAJRIBA ALMASHILMOQDA

Kecha Toshkent shahrida Oliy Majlis Senati tomonidan BMT Aholishunoslik jamg'armasining (UNFPA) vakolatxonasi, "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti hamkorligida tashkil etilgan xalqaro konferensiya o'z ishini boshladi.

Ikki kunlik anjuman ishida BMTning Aholishunoslik jamg'armasi rahbarlari, UNICEF jamg'armasi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Aholishunoslik va taraqqiyot bo'yicha parlament a'zolarining Osiyo forumi kabi xalqaro tashkilotlar vakillari, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, qariyb 20 davlatdan 40 dan ortiq parlament va hukumat a'zolari ishtirok etmoqda.

Xalqaro konferensiyada "Demografik o'zgarishlar sharoitida jamiyatni barqaror rivojlantirish: milliy va xorijiy tajriba" masalasi batafsil ko'rilmog'ida.

Anjumaning asosiy maqsadi ham demografik o'zgarishlar oqibatida ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat bozori, urbanizatsiya sohalarida yuzaga keladigan muammolar va ularning oqilona yechimi haqida tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Shuningdek, konferensiyada muvaffaqiyatli strategiyalar va yechimlar namoyish etilmog'ida, inklyuziv va dalillarga asoslangan samarali yechimlar ishlab chiqish bo'yicha tajriba almashilmog'ida.

Xalqaro konferensiyani Oliy Majlis Senati Raisi T. Norboyeva kirish so'zi bilan ochar ekan, anjuman kun tartibidagi barcha masala dolzarb ekanini qayd etdi. Bu masalalar nafaqat O'zbekiston, balki barcha mamlakat uchun ham muhimligini, ayrim davlatlar aholisi o'sishi, ba'zilarida aholi qisqarib borishi nuqtayi nazaridan tegishli choralar ko'rish zarurligini ta'kidlab o'tdi.

Mamlakatimizda tobora o'sib borayotgan aholi uchun ham iqtisodiy imkoniyatlar yaratish, ham ijtimoiy himoya kafolatini ta'minlash borasidagi ishlar davlat tomonidan izchil olib borilmog'ida.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

FUQAROLAR HUQUQ VA MANFAATLARINING ISHONCHLI KAFOLATI

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda dastlab keyingi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekiston tashqi siyosati tamomila yangi pog'onaga ko'tarilgani, xususan, yaqinda Fransiya poytaxtida bo'lib o'tgan UNESCO Bosh konferensiyasining 42-sessiyasida navbatdagi 43-sessiyani 2025-yilda Samarqandda o'tkazish to'g'risida

qaror qabul qilingani o'zbek diplomatiyasining navbatdagi yutug'i sifatida e'tirof etildi.

Shuningdek, mamlakatimiz rahbarining BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyoti uchun maxsus dasturi — SPEKA sammitidagi nutqi mazmun-mohiyati, unda mintaqaviy hamkorlikni yanada kuchaytirish bo'yicha ilgari surilgan qator amaliy tashabbuslarning ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tildi.

Shundan so'ng deputatlar fuqarolar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, yo'l harakati xavfsizligi tizimini takomillashtirishga qaratilgan qator muhim qonun loyihalarini ko'rib chiqdi. Qizg'in muhokamalar jarayonida konstruktiv fikrlar bildirildi, asosli takliflar ilgari surildi.



8-dekabr — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

O'ZBEKISTONNING YANGI TAHRIRDAGI ASOSIY QONUNI — XALQ XOHISH-IRODASINING IFODASI

Keyingi yillarda O'zbekistonimizda amalga oshirilayotgan islohotlar fidoyi xalqimizning sa'y-harakatlari bilan jadal tus oldi. Buni barcha sohadagi, har bir hududdagi yangilanishlaru salmoqli natijalar misolida ham ko'rish mumkin. Shunday sharoitda tegishli huquqiy asos, jumladan, Konstitutsiyamizni islohotlar sur'atiga moslashtirishni hayotning o'zi kun tartibiga olib chiqdi.

Zero, Konstitutsiya — dogma emas, u ham zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga hamohang tarzda takomillashtirib boriladi. Dunyo

bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, oxirgi 30 yilda 90 ga yaqin davlatlarda konstitutsiyaviy islohotlar amalga oshirilib, ularning 53 tasida yangi

Konstitutsiya qabul qilingan. Bu jarayon bizga ham tanish. Istiqol yillarida Bosh qo'musimizga 16 marotaba turli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Xo'sh, oxirgi konstitutsiyaviy islohotlar avvalgilaridan nimasi bilan ajralib turadi?

Bu savolga lo'nda qilib, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiya-



si — xalq xohish-irodasining yorqin ifodasi ekanligi bilan ajralib turadi, deb javob berish mumkin.



Ko'z o'ngimizdagi o'zgarishlar

HAYOT FAVVORALARI

Prezidentimizning Surxondaryoga tashrifi...

Kunlar nur tezligida o'tmoqda. Ikki kunlik tashrif qanchadan-qancha yumushni ado etishga imkon berdi. O'ylab, hayratga tushasiz. Har soniya necha kunga teng bo'ladi. Barchasi xalq uchun, inson uchun, farovon hayot uchun! "Yuzni ko'rmoq qiyin boqib yaqindan, Har narsa yiroqdan ko'rinar ayon", deydi shoir. Tashrifdan so'ng necha kunlab vaqt o'tdi. Hamon hayajon ila boshni chayqayapmiz. Lol qolganimizdan bari.

Tashrif davomida qilingan ishlar, ilgari surilgan taklif va tashabbuslar, tamal toshi qo'yilgan loyihalar, ochilgan yangi korxonalar — barchasining mazmun-mohiyati hamda ahamiyati haqida fikr yuritsangiz, kitob yozsangiz bo'ladi. Ayniqsa, To'polang suv omboridan obihayotni aholi manzillariga yetkazish loyihasinging hayotga ko'chgani... Eh-he, suvning to'rtta tumanga nurdan taralib kelganligi. Hazil gap emas. Hayotning bugungi afsonasi bu. Afsonalar haqiqati bu. Hech narsa o'z-o'zidan bo'lib qolmaydi.

Atoqli shoir G'afur G'ulom ta'biri bilan aytganda, "Taqqirin qo'l bilan yaratur odam, G'oyibdan kelajak baxt — bir afsona".

Prezidentimiz tashrif chog'idagi suhbatlarida aytib o'tdi: Bosh vazir bo'lgan

paytlarida To'polang suv omboriga keladi. Chayqalib turgan suvni ko'radi. Suvmisan suv — har qanday kishi boqib havaslanadi. Tiniqligi, shirinligi, shifoligi... ta'rifga sig'maydi. Hatto "Alpomish"ni yaratgan baxshi ham bunday jannatni tabiat ne'matini ko'rib, so'z topolmaydi. Umridda ko'rmagan bunday mo'jiza suvni. Shunda "Bu suv Surxondaryo dalalariga, ekinlariga boriyapti. Lekin Surxondaryoda 2 milliondan oshiq odamlarning uyida ichadigan toza suvi yo'q. To'polangning tog' suvini, pok suvini xonadonlarga, aziz insonlarimizning uylariga quvurlarda toza, pok holda yetkazamiz..." degan. Bu gaplarga 10 yil bo'ladi. Ko'p odamlarning esidan ham chiqib ketdi.



O'zbekiston Respublikasining QONUNI

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining yaxlit tizimi shakllantirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 25-iyulda qabul qilingan Senat tomonidan 2023-yil 30-sentabrda ma'qullangan

Keyingi yillarda mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni qurishda muhim shart hisoblanadigan samarali boshqaruv tizimini yaratishga qaratilgan keng ko'lamli ma'muriy islohotlar amalga oshirildi.

Yangi O'zbekistonning ma'muriy islohotlari doirasida O'zbekiston Respublikasi davlat qo'mitalari alohida vazirliklarga aylantirildi yoki boshqa vazirliklar tarkibiga kiritildi. Natijada vazirliklar, qo'mitalar, agentliklar va inspeksiyalarni o'ziga qamrab olgan respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimi shakllantirildi.

Mazkur Qonun bilan O'zbekiston Respublikasi qonunlariga "O'zbekiston Respublikasi davlat qo'mitalari" degan tushuncha O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidan chiqarib tashlanishini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmog'ida.

Ushbu Qonun Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarining birinchi bosqichi amalga oshirilishini ta'minlashga, shuningdek professional boshqaruv prinsiplariga asoslangan va natijaga yo'naltirilgan respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining yaxlit tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

1-modda. O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida"gi 417-XII-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustda qabul qilingan 265-II-sonli Qonuni tahririda) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil, № 9–10, 176-modda; 2005-yil, № 1, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 9, 588-modda; 2021-yil, 4-songa ilova; 2022-yil, № 3, 216-modda, № 6, 574-modda, № 10, 983-modda; 2023-yil, № 5, 316-modda) 18-moddasi birinchi qismining o'n to'rtinchi xatboshisidagi "davlat qo'mitalari" degan so'zlar chiqarib tashlansin.

(Davomi 2, 3, 4-betlarda).



O'zbekiston Respublikasining QONUNI

"Qo'riqlash faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish haqida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 22-noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2023-yil 28-oktabrda ma'qullangan

Mamlakatimizda qo'riqlash faoliyatining huquqiy va tashkiliy asoslarini, jismoniy va yuridik shaxslarga qo'riqlash xizmatlarini ko'rsatish chog'ida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solish maqsadlarida "Qo'riqlash faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinib, unda qo'riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish asoslari hamda qo'riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlarning huquqiy maqomi mustahkamlab qo'yildi.

Shu bilan birga huquqni qo'llash amaliyotida qo'riqlash faoliyati sohasiga doir ayrim tushunchalar turlicha talqin etilishining oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish zaruriyati mavjud.

Mazkur Qonun bilan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining ayrim normalarini "Qo'riqlash faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmog'ida.

Ushbu Qonun qo'riqlash faoliyati sohasidagi tushunchalarning aniq va bir xil qo'llanilishiga xizmat qiladi.

(Davomi 4-betda).



O‘zbekiston Respublikasining

QONUNI

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining yaxlit tizimi

shakllantirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining

ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

◀ (Davomi. Boshlanishi 1, 2-betlarda).

1) 11-moddaning uchinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

2) 14-moddaning uchinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

27-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustda qabul qilingan “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmnı moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi 660–II-sonli Qonuniga (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004-yil, № 9, 160-modda; Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, № 4, 167-modda; 2009-yil, № 4, 139-modda; 2012-yil, № 12, 336-modda; 2016-yil, № 4, 125-modda; 2019-yil, № 1, 5-modda; 2020-yil, № 10, 593-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) quyidagi oʻzgartirishlar kiritilsin:

1) 9-moddaning oʻninchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

2) 10-moddaning matnidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

28-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrda qabul qilingan “Oʻzbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi toʻgʻrisida”gi 712–II-sonli Qonuni (Oʻzbekiston Respublikasining 2018-yil 9-iyulda qabul qilingan OʻRQ–483-sonli Qonuni tahririda) (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, № 7, 428-modda; 2019-yil, № 11, 791-modda, № 12, 891-modda; 2020-yil, № 1, 1-modda; 2021-yil, 4-songa ilova; 2022-yil, № 2, 79-modda, № 3, 214-modda, № 4, 337-modda) 21-moddasi birinchi qismining ikkinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalariga” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

29-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2006-yil 11-oktabrda qabul qilingan “Qonunlar loyihalarini tayyorlash va Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi toʻgʻrisida”gi OʻRQ–60-sonli Qonuniga (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 10, 537-modda; 2014-yil, № 5, 130-modda; 2017-yil, № 9, 510-modda; 2018-yil, № 1, 1, 4-moddalar; 2019-yil, № 5, 261-modda; 2020-yil, № 8, 488-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 10, 968-modda; 2022-yil, № 10, 983-modda) quyidagi oʻzgartirishlar kiritilsin:

1) 6-modda:

birinchi qismining:

2-bandidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

4-bandidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

ikkinchi qismidagi “Apparati tarkibiy boʻlinmalarining” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

2) 11-moddaning ikkinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

30-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2008-yil 21-aprelda qabul qilingan “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida”gi OʻRQ–155-sonli Qonuni (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008-yil, № 4, 191-modda; 2010-yil, № 9, 337-modda; 2011-yil, № 4, 99-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda; 2015-yil, № 6, 228-modda; 2018-yil, № 4, 224-modda; 2020-yil, № 11, 652-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 8, 803-modda; 2022-yil, № 5, 464-modda; 2023-yil, № 1, 2-modda) 37-moddasi birinchi qismining ikkinchi jumlası quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Transport vositasi haydovchisi oʻz yonida sugʻurta polisini olib yurishi va uni tekshirish uchun qonunchilikka muvofiq bunga vakolatli boʻlgan davlat yoʻli harakati xavfsizligi xizmati xodimlariga koʻrsatishi shart, bundan haydovchining yonida Oʻzbekiston Respublikasining ichki ishlar organlari yoxud konsullik muassasalari tomonidan berilgan biometrik pasport yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasi mavjud boʻlgan hollar mustasno”.

31-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2008-yil 10-sentabrda qabul qilingan “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sugʻurtasi toʻgʻrisida”gi OʻRQ–174-sonli Qonuni (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008-yil, № 9, 480-modda; 2010-yil, № 9, 334-modda; 2021-yil, 4-songa ilova; 2022-yil, № 5, 464-modda) 7-moddasi birinchi qismining uchinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

32-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2010-yil 15-iyunda qabul qilingan “Arxiv ishi toʻgʻrisida”gi OʻRQ–252-sonli Qonuniga (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2010-yil, № 6, 233-modda; 2018-yil, № 4, 224-modda; 2019-yil, № 1, 1-modda; 2020-yil, № 12, 691-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) quyidagi oʻzgartirishlar kiritilsin:

1) 6-modda birinchi qismining sakkizinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

2) 20-moddaning uchinchi qismidagi “davlat qoʻmitasining” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

3) 23-moddaning:

uchinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

toʻrtinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

33-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2010-yil 27-dekabrda qabul qilingan “Dafn etish va dafn ishi toʻgʻrisida”gi OʻRQ–276-sonli Qonuni (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2010-yil, № 12, 476-modda; 2017-yil, № 9, 510-modda; 2019-yil, № 11, 792-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 10, 973-modda; 2022-yil, № 6, 575-modda) 11-moddasining birinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

34-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrda qabul qilingan OʻRQ–360-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan Oʻzbekiston Respublikasining Budget kodeksiga (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2013-yil, 12-songa 1-ilova; 2014-yil, № 9, 244-modda; 2015-yil, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 12, 383, 385-moddalar; 2017-yil, № 6, 300-modda, № 10, 605-modda, № 12, 772-modda; 2018-yil, № 1, 1-modda, № 7, 431, 433-moddalar, № 12, 783-modda; 2019-yil, № 1, 1-modda, № 5, 265-modda, № 8, 470-modda, № 9, 588-modda, № 11, 791-modda, № 12, 884, 891-moddalar; 2020-yil, № 3, 203-modda, № 11, 652-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, № 1, 7, 13-moddalar, 4-songa ilova, № 8, 803, 804-moddalar, № 10, 973-modda, № 12, 1198-modda; 2022-yil, № 5, 464-modda, № 6, 577-modda; 2023-yil, № 4, 272-modda) quyidagi oʻzgartirishlar kiritilsin:

1) 26-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalarining” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

2) 36-moddaning uchinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

3) 44-moddaning toʻrtinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

4) 62-moddaning:

nomidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

matnidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

5) 66-moddaning birinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

6) 67-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

7) 70-modda birinchi qismining 4-bandidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

8) 71-modda birinchi qismi 4-bandining uchinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

9) 82-modda:

nomidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

birinchi qismining birinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

ikkinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

uchinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

10) 84-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

11) 90-modda ikkinchi qismining oltinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

12) 92-moddaning uchinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

13) 105-moddaning ikkinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

35-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2014-yil 5-mayda qabul qilingan “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi toʻgʻrisida”gi OʻRQ–369-sonli Qonuni (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2014-yil, № 5, 127-modda; 2017-yil № 9, 510-modda; 2019-yil, № 8, 470-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) 5-moddasi birinchi qismining yettinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“budgetdan ajratiladigan mablagʻlardan, budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamgʻarmalari mablagʻlaridan foydalanilishi toʻgʻrisida, oʻtkazilgan tanlovlar (tenderlar) va olingan tovarlarning yetkazib berilishi haqida, vazirliklar va idoralarning budget va budgetdan tashqari mablagʻlar hisobidan belgilangan maqsadli koʻrsatkichlarga erishilishi toʻgʻrisida, shuningdek xarajatlar iqtisodiy tasnifining moddaları kesimida mablagʻlarning sarflanishi haqida vazirliklar, idoralar, davlat maqsadli jamgʻarmalari hamda boshqa budget mablagʻlarini taqsimlovchilar tomonidan oʻz rasmiy veb-saytlariga joylashtiriladigan tegishli axborot”.

36-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2015-yil 26-avgustda qabul qilingan “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi toʻgʻrisida”gi OʻRQ–393-sonli Qonuni (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2015-yil, № 8, 314-modda; 2019-yil, № 2, 47-modda; 2021-yil, № 1, 13-modda, № 4, 290-modda, 4-songa ilova; 2022-yil, № 11, 1061-modda) 12-moddasi birinchi qismining “j” kichik bandidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

37-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2017-yil 7-sentabrda qabul qilingan “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni taʼminlash toʻgʻrisida”gi OʻRQ–443-sonli Qonuniga (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2017-yil, № 9, 507-modda; 2018-yil, № 4, 224-modda, № 7, 431-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) quyidagi oʻzgartirishlar kiritilsin:

1) 7-modda:

nomidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

birinchi qismining birinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

ikkinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

2) 8-modda ikkinchi qismining yettinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

3) 11-moddaning birinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

4) 14-modda:

birinchi qismining beshinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalarining” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

ikkinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

38-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvarda qabul qilingan OʻRQ–458-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan Oʻzbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasiga (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, № 1, 3-modda; 2019-yil, № 2, 47-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) quyidagi oʻzgartirishlar kiritilsin:

1) 17-bandning ikkinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

2) 21-banddagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

3) 25-bandning birinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

39-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2018-yil 25-yanvarda qabul qilingan OʻRQ–462-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy sud ishlarini yuritish toʻgʻrisidagi kodeksi (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, 1-songa 3-ilova, № 10, 672-modda; 2019-yil, № 5, 261-modda, № 9, 592-modda, № 11, 791-modda, № 12, 880-modda; 2020-yil, № 1, 1-modda, № 3, 198-modda; 2021-yil, № 1, 9-modda, 4-songa ilova, № 8, 800, 803 moddalar, № 9, 903-modda; 2022-yil, № 8, 787-modda, № 12, 1188-modda; 2023-yil, № 3, 185-modda, № 4, 269-modda) 178-moddasining matnidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

40-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2018-yil 30-iyulda qabul qilingan “Ekstremizmga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi OʻRQ–489-sonli Qonuni (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, № 7, 434-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) 12-moddasining toʻrtinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

41-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 17-yanvarda qabul qilingan OʻRQ–517-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan Oʻzbekiston Respublikasining Konsullik ustavi (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 1, 6-modda; 2021-yil, 4-songa ilova; 2022-yil, № 3, 216-modda) 15-moddasining toʻrtinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

42-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 6-fevralda qabul qilingan “Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari toʻgʻrisida”gi OʻRQ–518-sonli Qonuni (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 2, 43-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) 4-moddasining sakkizinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmitasi” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

43-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 10-mayda qabul qilingan “Davlat-xususiy sheriklik toʻgʻrisida”gi OʻRQ–537-sonli Qonuni (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 5, 262-modda; 2021-yil, № 1, 16-modda, 4-songa ilova; 2022-yil, № 6, 570-modda) 12-moddasi ikkinchi qismining beshinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalariga” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

44-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 25-iyunda qabul qilingan OʻRQ–544-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan Oʻzbekiston Respublikasining Saylov kodeksi (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 6, 327-modda; 2021-yil, № 2, 139-modda, 4-songa ilova, № 6, 518-modda; 2022-yil, № 3, 213-modda, № 6, 574-modda; 2023-yil, № 5, 316-modda) 14-moddasining yigirma birinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

45-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 1-iyulda qabul qilingan “Oʻzbekiston Respublikasining Hisob palatasi toʻgʻrisida”gi OʻRQ–546-sonli Qonuniga (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 7, 384-modda, № 9, 588-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 8, 803, 804-moddalar, № 12, 1198-modda; 2023-yil, № 4, 272-modda) quyidagi oʻzgartirishlar kiritilsin:

1) 30-moddaning oʻn yettinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalarining” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

2) 33-moddaning ikkinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

46-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyulda qabul qilingan “Shaxsga doir maʼlumotlar toʻgʻrisida”gi OʻRQ–547-sonli Qonuni (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 7, 385-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) 34-moddasining matnidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

47-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyulda qabul qilingan “Turizm toʻgʻrisida”gi OʻRQ–549-sonli Qonuniga (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 7, 387-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 10, 968-modda; 2022-yil, № 6, 570-modda) quyidagi oʻzgartirishlar kiritilsin:

1) 11-modda toʻrtinchi qismining:

ikkinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

oltinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

2) 35-moddaning ikkinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

48-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 6-dekabrda qabul qilingan “Kasaba uyushmalari toʻgʻrisida”gi OʻRQ–588-sonli Qonuni (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 12, 882-modda; 2021-yil, 4-songa ilova; 2022-yil, № 5, 464-modda) 49-moddasiga quyidagi oʻzgartirishlar kiritilsin:

ikkinchi qismdagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

uchinchi qismdagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

49-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevralda qabul qilingan “Maxsus iqtisodiy zonalar toʻgʻrisida”gi OʻRQ–604-sonli Qonuni (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020-yil, № 2, 106-modda; 2021-yil, 4-songa ilova; 2022-yil, № 6, 570-modda) 5-moddasining beshinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

50-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 13-martda qabul qilingan “Oʻzbekiston Respublikasining fuqaroligi toʻgʻrisida”gi OʻRQ–610-sonli Qonuniga (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020-yil, № 3, 201-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 6, 523-modda; 2022-yil, № 3, 216-modda) quyidagi oʻzgartirishlar kiritilsin:

1) 26-moddaning birinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

2) 30-moddaning birinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

3) 31-moddaning birinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

4) 38-modda ikkinchi qismining uchinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmitasining” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

5) 56-moddaning matnidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

51-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 16-martda qabul qilingan “Aholini roʻyxatga olish toʻgʻrisida”gi OʻRQ–611-sonli Qonuning (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020-yil, № 3, 202-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 12, 1194-modda) 17-moddasiga quyidagi oʻzgartirishlar kiritilsin:

nomidagi “davlat qoʻmtalarining” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

matndagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

52-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Taʼlim toʻgʻrisida”gi OʻRQ–637-sonli Qonuniga (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020-yil, № 9, 538-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 10, 968-modda) quyidagi oʻzgartirishlar kiritilsin:

1) 30-modda:

beshinchi qismining uchinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

oltinchi qismining ikkinchi xatboshisidagi “vazirliklar, davlat qoʻmtalari va idoralari” degan soʻzlar “vazirliklar va idoralar” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

2) 32-modda uchinchi qismining beshinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

3) 34-moddaning toʻqqizinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

4) 58-moddaning sakkizinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

5) 73-moddaning matnidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

53-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrda qabul qilingan “Aholi bandligi toʻgʻrisida”gi OʻRQ–642-sonli Qonuniga (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020-yil, № 10, 595-modda; 2021-yil, № 4, 287-modda, 4-songa ilova; 2022-yil, № 3, 216-modda, № 5, 464-modda, № 6, 570-modda, 10-songa ilova) quyidagi oʻzgartirishlar kiritilsin:

1) 75-modda ikkinchi qismining uchinchi xatboshisidagi “vazirliklar, davlat qoʻmtalari va idoralari” degan soʻzlar “vazirliklar va idoralar” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

2) 77-modda:

birinchi qismining birinchi xatboshisidagi “vazirliklar, davlat qoʻmtalari va idoralari” degan soʻzlar “vazirliklar va idoralar” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

toʻrtinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

54-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabrda qabul qilingan “Oʻzbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi toʻgʻrisida”gi OʻRQ–647-sonli Qonuniga (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020-yil, № 11, 653-modda; 2022-yil, № 5, 464-modda, № 6, 570-modda) quyidagi oʻzgartirishlar kiritilsin:

1) 26-modda birinchi qismining oʻn beshinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

2) 44-moddaning beshinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin.

55-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 22-fevralda qabul qilingan OʻRQ–676-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan Oʻzbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksiga (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, № 2, 145-modda; 2022-yil, № 6, 570, 577-moddalar, № 11, 1061-modda) quyidagi oʻzgartirishlar kiritilsin:

1) 7-moddaning ikkinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Vazirliklar va idoralar bir vazirlik va idora doirasida qoʻllanilishi mumkin boʻlgan idoraviy qurilish normalarini oʻz vakolatlari doirasida ishlab chiqishi, tasdiqlashi, qayta koʻrib chiqishi yoki bekor qilishi mumkin”;

2) 18-moddaning ikkinchi qismidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

3) 20-modda ikkinchi qismining yettinchi xatboshisidagi “davlat qoʻmtalari” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

4) 23-moddaning birinchi qismidagi “vazirliklar, davlat

